



## **AFG`ON URUSHI MAVZUSIDAGI BADIY ASARLARDA INSON RUHIYATINING MA`NAVIY YEMIRILISHI**

**Mahammadiyev Ahadjon Ro`ziboy o`g`li**

ADU, O`zbek adabiyotshunoslik kafedrasи o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5548119>

### **MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 20-sentabr 2021  
Ma'qullandi: 25- sentabr 2021  
Chop etildi: 30- sentabr 2021

### **KALIT SO'ZLAR**

*obraz, qahramon, badiy psixologizm, konflikt, detal, personaj, diolog, konflikt turlari, syujet.*

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada qahramon ruhiyatini, undagi o`zgarishlar, badiy psixologizm va uning namoyon bo`lishi, asardagi obrazlarning ruhiy dunyosidagi evrilishlar va ulardagi ma`naviy va ruhiy yemirilishlar badiy ihatdan tahlilga tortilgan. Qahramon ruhiyatining yoritilishida badiy psixologizmning o`rni qay darajada ekanligi misollar asosida yoritib berilishiga harakat qilingan.*

Badiy asarda qahramon ruhiyatini ochib berish uchun badiy psixologizmdan foydalaniladi. Chunki qahramonning qanday harakat qilishi, qanday fikrashi, umuman olganda uning barcha harakatlari badiy psixologizmga dahldor bo`ladi. “Badiy psixologizm - badiy asarda to`laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so`zlarining psixologik ihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami”.<sup>1</sup> Bundan ko`rinyaptiki, asarda qahramon ruhiyatini ochib berishda badiy psixologizmning roli katta ekan. Lekin ana shu qahramon ruhiyatini ochib beruvchi

vositardan biri sifatida qahramonning xatti-harakati va gap so`zlarini ko`rsatiladi. Chunki ijodkor o`quvchiga personaj ruhiy holatini so`z bilan tasvirlagandan ko`ra uning harakatlari va atrofdagi voqealarga munosabatlarini bildirish orqali tushuntirishi osonroq kechadi. Personaj ruhiyatining ochib berilishi bevosita yoki bilvosita amalga oshirilishi deganda esa uning ruhiyatidagi o`zgarishlar o`z ichki olamida sodir bo`lyaptimi yoki ayni shu arayonlarga sabab bo`luvchi qanday voqeasodir bo`ldi degan savollarni yuzaga chiqaradi. Yana bir muhim jihat borki personajlarning diologlari ham badiy psixologizmni yuzaga chiqarishda muhim hisoblanadi. “Har bir obraz boshqa obrazlar

<sup>1</sup> D.Quronov va boshq. Adabiyotshunoslik lug`ati. Akademnashr.2012., 48-bet.



bilan muloqot jarayonida xarakter xususiyatlarini yanada kengroq namoyon etadi. Ularning keskin burilishlar, favqulodda vaziyatlardagi holatlarini aks ettirishda bu jihat yaqqol ko`rinadi".<sup>2</sup> Demak badiiy asarni tahlil qilish jarayonida obrazlar ruhiyatida bo`layotgan o`zgarishlar va ularda kechayotgan ruhiy jarayonlarni to`laqonli tushunish va mohiyatga yetib boorish uchun diologik vaziyatlarni ham inobatga olish lozim bo`ladi. Qahramon ruhiy olamida bo`ladigan keskin burilishlarni muhit yoki uning ichki kechinmalari ta`sirida deb baholashimiz uchun esa badiiy psixologizmni to`laqonli asar tahlilidagi o`rnini belgilab olishimizga bog`liq jarayon deb olishimiz ma`qul bo`lar ekan. Urush mavzusidagi asarlarda bu arayon biroz murakkabroq va konfliktlar tez sur`atlarda beriladi. Qahramonlar ruhiyatida evrilishlar ko`plab nuqtalarda sodir bo`ladi. Bu jarayonlar ba`zi asarlarda izchil holatda keltirilsa, ba`zi asarlarda murakkab holatda beriladi.

O`zbek adabiyotida urush mavzusiga bag`ishlangan talay asarlar mavjud bo`lib, ulardagi qahramonlar turlichaligi bilan farqlanadi. Lekin, ularni birlashtirib turuvchi asosiy nuqta bu urush bo`lib, qahramonlarni harakatlantiruvchi va asarning voqealar tizimini rivojlantiruvchi mavzu sifatida turadi. Inson o`zi ko`rgan va guvohi bo`lgan holatni qay darajada tasvirlaydi-yu, hujjatlarni o`organib chiqish va kimdandir eshitish orqali bilgan ma`lumotlarni qay darajada tasvirlay olishi aynan shu mavzuda yaratilgan asarlarda bevosita ko`zga tashlanadi. Sovet hokimiyatining nodonlarcha chiqargan qarori tufayli Afg`on diyorida ne-ne

navqiron yigitlar halok bo`lib ketdi. Ular o`zlarini Baynalminal burchimizni ado etmoqdamiz deya ishontirishgan, asl mohiyatni anglab yetishmagan edi. G`afur Po`latovning "Herirud faryodi" harbiy dala qissasida ham aynan afg`on urushi voqealari tilga olinadi. Bu asarda insonning ma`naviy qiyofasi urush sababli qay darajada tubanlashib ketganligi, bu tubanlashuv jarayonida qanday insonlar o`zlarini saqlab qola olishganligi, millat va shaxslar o`rtasida, dinlar o`rtasidagi qarama-qarshiliklarni badiiy tarzda ko`rsatib berishga harakat qilingan. Asarda bir necha bor tilga olingan Baynalminal burch degan tushuncha bor. Afg`on urushi 1979-1989 yillar davomida olib borilgan bo`lsa, shu yillarda harbiy hizmatni o`tash uchun Afg`onistonga yuborilgan yosh yigitlar faqatgina Vatan oldidagi burchlarini amalga oshirish uchun, Sovet tuzumini himoya qilish uchun ketyapmiz deb hisoblashgan. Shu qarashlarida qat`iy turishgan. Borganlaridan keyin esa insonni qarashlarini tubdan o`zgartirib yuborgan fikrlarga va holatlarga duch kelishgan. Oddiy bir holat borki, unga ko`z yumishning iloji yo`q. Afg`onga jo`natilgan askarlar urushga borishlarini bilmaganlar. Ko`plari Turkmanistonda harbiy tayyorgarlik olib borishgan va keyin qandaydir bahonalar bilan "harbiy jazo" sifatida Afg`onistonga jo`natilgan. Lekin, keyinchalik aniq bo`ladiki, u yerdagilar hammasi afg`onistonga borishga majbur. Ular o`zlaricha Germaniya yoki rossiyaga boramiz deb orzu qilishgan. Afg`onga jo`natilganda ham harbiy burch, vatan oldidagi vazifa deb uqtirishgan. Lekin inson qiyofasidagi ma`naviy buzilish va ruhiy

<sup>2</sup> Sh. Botirova. Hozirgi o`zbek romanlarida badiiy psixologizm. Dissertatsiya. Qarshi 2019., 14-b



yemirilish harbiy tayyorgarlik paytidayoq boshlangan va bu kishini, hattoki, o`quvchini ham ruhiy zo`riqishga olib keladi.

Asar qahramoni, ya`ni, muallif o`z boshidan o`tkazganlarini kundalik asosida tiklashga harakat qiladi va har qanday holatni yetarli darajada, asoslar bilan yoritmoqchi bo`ladi. Turkmanistonda harbiy tayyorgarlik paytida rus serjantlarining ularga nisbatan qilgan zo`ravonliklarini yozadi. Ashxaboddagi harbiy tayyorgalik paytidagi Nase va Filyaning shafqatsizlarcha muallifni jazolashi va shu oddiy intizomga bo`ysunmaslikni bahona qilib Afg`onga junatilib yuborilishi biroz erishdek tuyuladi. Chunki intizomni buzgan askar jazolanishi muqarrar, lekin qahramonning jazolanishida millatlar o`rtasidagi adovat sezilib qoladi. Chunki jazo bir martalik emas uzoq davom etadi va har sohada intizomni buzgan o`zbek askari kamsitilib keladi. Yana bir tomoni harbiy tayyorgarli qanday kechishi yoki askarning tayyorgarlik holati emas, askarlarning intizomga bo`ysunishi va serjantlar aytgan bemaza buyruqlarni bajarishlari asosiydekkuyilib qoladi. Lekin Nabi Jaloliddinning “O`limning rangi”, Qo`chqor Norqobilning “Daryo ortidagi yig`i” yoki “Biz jangdan qaytmadik” asarlarida bu holat boshqacharoq beriladi. Asar mualliflari bevosita urushda qatnashganlar va urushdan oldingi harbiy tayyorgarlikni ham boshdan kechirganlar. Ularning asarlarida harbiy tayyorgarlik davridagi voqealar boshqacharoq yoritilgan. “Herirud faryodi” qissasida insonning bir insonga nisbatan zug`umi orttirib yuborilgan. Hattoki, askarlarning holatlari ham juda ayanchli tarzda berilgan. Urush insonning ma`naviy qiyofasini

tubdan o`zgartirib yuboradi. Kimsidir bu urushda o`zining o`zligini saqlab qola olsa, kimsidir ma`nan va ruhan tanazzulga uchraydi va butunlay boshqa shaxsga aylanadi. Urush insonni inson qiyofasidan chiqarib yuboradi. Afg`on urushi haqidagi asarlarda insonning ma`naviy buzilishi va ruhiy yemirilishi badiiy napsixologizm asosida berilgan. Yana bir narsa borki, Herirud faryodi asarida musulmon va musulmon bo`lmaganlar holati ham aytib o`tilgan va bunda afg`on diyoridagi musulmonlar urush holatida ham musulmonga nisbatan munosabatini o`zgartirmagan. Bir necha bora sir tushgan musulmonlar sho`ro askarlarining sog` va omon qaytib kelganlari tasvirlangan bo`lsa xuddi shu holda asirga tushgan sho`ro askarining holati ham ayovsiz jazolangan holatda edi. Ho`sh insonni bu qadar tubanlashtirib yuborgan narsa nima edi? Urush. Albatta shu urush edi. Urush insonni ma`nan g`arib qilib qo`yishi ham yetarli asoslar bilan ko`rsatib o`tilgan. Asarda Sovet jamiyatining mudhish xatosi bo`lmish urush necha-nechalab insonni o`limga mahkum qilganlari, eng ayanchlisi halok bo`lgan va yaralangan, nogiron bo`lib qolgan askarlarning ko`pchiligi hali uylanib ham ulgurmagan, endigina 18 yoshni qarshilagan “go`daklar” edilar. Urushdan tirik qaytganlar ham aslida ma`nan nogiron bo`lib qaytgan edilar. Afg`on urushi millionlab insonlarning hayotini izdan chiqarib yubordi. Urush ichida esa ular minglab azoblarni boshdan kechirdilar va eng ayanchlisi ularning onglariga urushga borishdan oldin “Baynalminal yoki internatsional burchni bajarish uchun, Afg`on diyorida tinchlik o`rnatish uchun” qo`llariga qurol olishlari kerakligi singdirilgan, askarlar ham “biz buyuk ish qilyapmiz” degan tushuncha va qarash bilan



afgon diyoriga kirib kelgan edilar. Bu diyorga kirib kelganlarida esa barchalari aldanganliklarini, la`nati urush o`zlarinng boshiga yetishini o`ylab qattiq izardi tushadilar va ma`naviy dunyolarida qandaydir uzilish sodir bo`ladi. Ko`ziga har qadamda urush sharpasi tashlanib turgan va har qadamida ajalning nafasini sezib turgan inson hech qanday qonuniyatni tan olmay qo`yadi. Afg`on diorida askarlik muddatini o`tayotgan askarlarda ham aynan shu holat kuzatiladi va ular faqatgina o`z jonlarini saqlashga urinmoqchi bo`lganlarni yomon ko`ra boshlaydilar. Asarda rus zabitlari Nose va Filya obrazni aynan o`z jonlarini qadriga yetuvchi va o`zlaridan boshqa millat vakillarini "qoralar" deb atovchi harbiylar. Ular hech narsadan qaytmaydilar va askarlarni xo`rlashni, ularga ruhiy zarba berishni xushlovchi shaxslar. Holbuki, o`zining qadriga yetadigan inson bunday xo`rliklarga chiday olmaydi va bu holatga qarshi isyon qiladi. Muallif ham bir safargi mazaxlanuvchi buyruqlar paytida ularga qarshi keskin gapiradi va bu ishi uchun qattiq jazolanadi. Armiyada tartib qoida va zabitlarning buyruqlarini so`zsiz bajarish kerakligi, agar kimdir bu talablarga bo`ysunmasa va nizomni buzsa qanday holga tushishini ko`rsatib qo`yish maqsadida ular muallifni qattiq jazolashadi va qora ro`yhatga tushirishadi. Muallif shu oddiy bir aybi uchun Afg`onga yuboriladi. Muallafning ongida shunday narsa bor ediki, aybini yuvish uchun Afg`onda xizmat qilishga rozi edi va bunga ma`nan tayyor edi. U o`zini Sovt xalqi oldidagi "ayb"ini yuvayotganiga ishontiradi va chin dildan xizmat qila boshlaydi. Chunki u harbiy intizomni buzmaganda Germaniya yoki

Moskvaga borib xizmat qilishi mumkinligiga ishonar edi. Lekin, keyinroq anglab yetadiki, hech kim Germaniya yoki Moskvaga bormaydi. Hamma Afg`onga keladi. Shundan keyin uning ongida Sovet armiyasiga bo`lgan muhabbat "o`ladi". Endi u qandaydir bee`tibor holga tushadi va endi faqatgina o`z jonini saqlab qolish uchungina harakat qila boshlaydi.

"Herirud faryodi" asarida obrazlar ruhiy jihatdan murakkab emas. Balki, egiluvchan va bo`ysinuvchan. Ularda isyon yo`q. Atrofida bo`layotgan voqealarga nisbatan hech bo`lmaganda inson qalbida bo`lsa ham isyon qila olishi kerak. Bu obrazlarda maqsad tirik qolish, boylik orttirish, boshqalar boshiga tushgan kulfatga bee`tiborlik degan mayda tuyg`ular xolos. Ularni mana shu jarayonga yetib kelishlariga sabab bo`lgan voqelarning barchasi badiiy psixologizmga misol bo`la oladi. Chunki qahramon real hayotdan olingan. Muallif bu asarda qahramon sifatida o`zi ekanligini, asar harbiy dala qissasi ekanligini aytib o`tadi. Yana bir tomoni muallif tasvirlayotgan voqealarida qayta yashagan va o`sha paytdagi izardi tushkunlik holatlarini qayta boshdan kechirgan. Shu jarayonda o`zining ichki olamidagi konfliktlar va ruhiy jarayonlarni, insonlar qiyofasida, ularning ruhiy dunyosidagi ma`naviy yemirilishlarni bor bo`yicha, ochiq holatda tasvirlashga harakat qilgan va bu tasvir jarayonida syujet liniyasidan biroz chalg`ishlar ham ko`zga tashlanadi. Lekin asosiy jihat bu emas. Asosiy jihat asardagi obrazlar va ularning qiyofalaridagi o`zgarishlar va ma`naviy yemirilishlar. Bu ihatlarni asarda ko`plab uchratish mumkin.



**References:**

1. D.Quronov va boshq. Adabiyotshunoslik lug`ati. T; Akademnashr., 2012
2. Sh. Botirova. Hozirgi o`zbek romanlarida badiiy psixologizm. Dissertatsiya. Qarshi; 2019.
3. G`Po`latov. Herirud faryodi. Harbiy dala qissasi. Jahon adabiyoti jurnali., 2004